



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



HARBIY XIZMATCHILARDA MILLIY VA JANGOVAR RUHNI SHAKLLANTIRISHDA HARBIY PEDAGOGIKANING ROLI

Egamberdiyev Ilxomjon Yigitaliyevich

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Mirzanov Sardor Umarqul o'g'li

Harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif, harbiy xizmatchilarda milliy va jangovar ruhni shakllantirishda harbiy pedagogikani roli qay darajada ta'sir etilishni misollar keltirish yo'li bilan izohlab bergan. Bu maqolada muallif hozirgi kunda Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatchilarni milliy va jangovar ruhni shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy pedagogik omillarni yoritib bergan.

Kalit so'zlari: Qurolli Kuchlar, Milliy ruh, Jangovar ruh, harbiy pedagogika, milliy g'urur, harbiy xizmatchi, vatanparvarlik tarbiyasi.

РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО И БОЕВОГО ДУХА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Эгамбердиев Ильхомжон Йигиталиевич

*Преподаватель факультета военного образования Национального педагогического университета Узбекистана, доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
доцент*

Мирзанов Сардор Умаркул оглы

Студент 2 курса факультета военного образования

Аннотация: В данной статье автор на примерах объясняет роль военной педагогики в формировании национального и боевого духа у военнослужащих. В статье освещаются основные педагогические факторы, влияющие на формирование национального и боевого духа у военнослужащих в современных Вооруженных Силах.

Ключевые слова: Вооруженных Силы, национальных дух, боевой дух, военная педагогика, национальная гордость, военнослужащий, патриотическое воспитание.

THE ROLE OF MILITARY PEDAGOGY IN FORMING THE NATIONAL AND WARLIKE SPIRIT OF MILITARY PERSONNEL

Egamberdiyev Ilkhomjon Yigitaliyevich

*Lecturer at the Faculty of Military Education of the National Pedagogical University of
Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Mirzanov Sardor Umarqul o'g'li

2nd year student of the Faculty of Military Education

Annotation: *In this article, the author explains, through illustrative examples, the extent to which military pedagogy influences the formation of national and combat spirit among military personnel. The article also highlights the main pedagogical factors that influence the development of national and combat spirit among servicemen in the modern Armed Forces.*

Keywords: *military pedagogy, national spirit, combat spirit, military personnel, Armed Forces, patriotic education.*

Hozirda dunyoda sodir bo'layotgan qurolli mojarolar shuni ko'rsatmoqdaki, yani rivojlangan mamlakatlar o'z manfaatlarini yuqori qo'yib tabiiy boyliklarga ega bo'lgan davlatlarni kuch ishlatish yo'llari bilan bo'ysintirganligini, kerak bo'lsa u mamlakatlar ichida nizolar chiqarib xalqni davlatga qarshi norozilik qo'zg'olonlarni jirkanch yo'llar bilan uyushtirmoqdalar. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan 2021-yil 12-yanvarda o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida "Harbiy xizmatchilarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash" maqsadida milliy an'analarimizdan, urf odatlarimiz va buyuk ajdodlarimiz Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temurlarni jangovar yurishlari misolida harbiy xizmatchilarni vatanparvar ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tgan edi. [1]

Bu so'zlarni Prezidentimiz bejizga aytilmaganlikni biz hozirda dunyoda bo'layotgan qurolli mojarolarda ko'rishimiz mumkin, misol uchun Rossiya va Ukraina o'rtasidagi qurolli mojarolarda har ikki tomonni harbiy xizmatchilari jang qilishda bosh tortganligiga guvoh bo'ldik. Bunday hodisalar bizni Qurolli Kuchlarimizda sodir bo'lmasligi uchun hamda harbiy xizmatchilarimizni milliy va jangovar ruhni yuksaltirish maqsadida davlatimiz rahbari va Mudofaa vazirligi tomonidan bir qancha chora va tadbirlar belgilandi. Bu belgilangan tadbirlar negizida harbiy xizmatchilarimizning milliy va jangovar ruhni yuksaltirishlar yotadi deb aytishimiz mumkin. Bularga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2024-yil 14-yanvar kuni Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida quyidagi so'zlarni – "Buyuk Amir Temur bobomiz aytganlaridek, g'alaba taqdirini avvalo qo'shinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi" deb aytgan edi [1].

Hozirda harbiy xizmatchilarimizning milliy va jangovar ruhni shakllantirishda eng asosiy fanlardan biri bu harbiy pedagogikadir.

Harbiy pedagogikaga qisqacha ta'rif beramiz.

Harbiy pedagogika askarlar va harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo'lishlari, tinchlik davrida va urush sharoitda o'z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma'naviy, siyosiy va jangovar xislatlarni, jangovar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mahoratni shakllantirish, aqliy va jismoniy kuchlarni rivojlantirish, ma’naviy-ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o‘rgatuvchi fandır.

Ushbu milliy va jangovar ruh tushuncha o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy ruh jangovar ruhning ma’naviy asosini tashkil etadi. Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik hisi kuchli bo‘lgan harbiy xizmatchi jangovar vazifalarni bajarishda ham yuqori ruhiy barqarorlikni namoyon etadi.

Milliy va jangovar ruhga qisqacha ta’rif berib o‘tamiz.

Milliy ruh – millatning ichki ruhiy holati, kechirmalari, his–tuyg‘ulari, ma’naviy dunyosi, o‘y–fikrlari, maqsad va maslagi hamda kayfiyatini ifodalovchi tushuncha.

Milliy ruh uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanadigan jarayon bo‘lib, u millat taraqqiyotida hayotbaxsh manba bo‘lib xizmat qiladi [2].

Harbiy pedagogika fani harbiy xizmatchini milliy ruhni shakllantirishda tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat hisoblanadi. Bu jarayonda harbiy xizmatchi milliy tarixni, buyuk ajdodlarini jasoratini va harbiy an‘analarni o‘rganadi, ularda milliy o‘zlik paydo bo‘ladi va shu omillar ta’sirida milliy ruh shakllanadi [3].

Harbiy pedagoglar tomonidan olib boriladigan ushbu ishlar harbiy xizmatchilarda milliy iftixor va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Jangovar ruh – bu insonning ruhiy va jismoniy jihatdan qiyinchiliklarga moyillik bilan qarash qobiliyatidir.

Bu fazilat insonga turli to‘siq va qiyinchiliklarni yengish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan qat’iyat, matonat va jasoratini taqdim etadi.

Jangovar ruhni shakllantirishda harbiy pedagogika psixologik tayyorgarlikka alohida e’tibor qaratadi. Amaliy mashg‘ulotlar, taktik o‘quvlar va jangovar simulyatsiyalar orqali harbiy xizmatchilarda qiyin vaziyatlarda o‘zini tuta bilishni, jamoaviy harakat qilishni va ularda qo‘rquv va stressni yengish qobiliyati shakllantiriladi.

Shuni aytish lozimki harbiy pedagogikada milliy va jangovar ruhni shakllantirish bir-biridan ajralgan holda emas, balki uyg‘un tarzda olib borilganda maqsadga muvaffaq bo‘ladi. Harbiy xizmatchida milliy g‘urur va tarixiy xotira jangovar tayyorgarlik jarayonida ma’naviy tayanch vazifasini o‘taydi. Bu esa harbiy xizmatchini faqat buyruq ijrochisi emas, balki Vatan taqdiri uchun mas’ul shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi [4].

Endi harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhda tarbiyalash jarayoning mohiyati, tamoyillari va usullarini ko‘rib chiqamiz.

Harbiy xizmatchilarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari kuydagilardan iborat:

- vatanparvarlik tarbiyasi;
- ma’naviy-axloqiy tarbiyasi;
- harbiy tarbiyasi;
- huquqiy tarbiyasidan iboratdir.

Harbiy xizmatchilarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash tamoyillari kuydagilardan iborat:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- milliy istiqbol mafkurasiga sadoqat;
- harbiy faoliyat jarayonida tarbiyalash;
- jamoada va jamoa orqali tarbiyalash;

Yuqorida ko‘rsatilgan tarbiyalash tamoyillari va usullarni qo‘llagan holda biz harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhlarini shakllantiramiz va harbiy xizmatchilarni “G‘oyaviy jangchi” sifatida tarbiyalaymiz.

Yana shuni aytish lozimki harbiy xizmatchini milliy va jangovar ruhni shakllantirishda eng asosiy tarbiyaviy usullardan biri bu o‘zligiga ishonitirish, yani harbiy xizmatchi o‘zlikni anglashni, millatini tarixni va urf odatlari, qadriyatlarini bilishi orqali ularda milliy ruhni shakllantirish lozimdir. [2]

Milliy o‘zlik nima?

Milliy o‘zlik – insonning shaxs darajasiga ko‘tarib, ma’naviy kamolot sari yetaklaydigan ruhiy kuch. Milliy o‘zlikni anglash harbiy xizmatchini xizmat faoliyatida muhim o‘rin tutib, shaxs va jamiyatning ma’naviy kamolotida, fuqarolik jamiyatining moddiy-ma’naviy asoslarini mustahkamlashda ulkan ahamiyat kasb etadi. Zero harbiy xizmatchilar o‘zlikni anglash tufayli o‘tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nigoh tashlaydi. Shuning uchun ham ularda milliy ruhni yuksaltirishda milliy o‘zlikni anglash masalasi dolzarbdir.

Endi qadimgi buyuk mutafakkirlarni insonni o‘zlikni anglash bo‘yicha qanday fikrlarni oldga surganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol:

Qadimgi davr mutafakkirlari Konfutsiy, Suqrot, Aflotun, Arastu milliy ruhni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratganlar. Konfutsiy aytganidek, «urf-odatlar, an’analar, jamiyatni boshqarish tartiblari» - «li» qonuniga amal qilish haqida qayg‘urib keladi». Endi «Li» qonuni deb odatda olim Edvard Toridayk tomonidan ilgari surilgan «ta’sir qonuni» nazarda tutiladi. «Li» qonuniga ko‘ra: “Agar muayyan harakat natijasida ijobiy samara (mukofot, qoniqish) yuzaga kelsa, shu harakat takrorlanish ehtimoli ortadi, agar salbiy oqibat keltirsa, u harakat so‘nadi yoki kamayadi”. Bu qonundan xulosa qilgan holda biz milliy va jangovar ruhni shakllantirish davomida ko‘proq harbiy xizmatchilarimizni rag‘batlantirsak ko‘zlagan maqsadimizga osonroq erishimizga imkoniyat bo‘ladi. [3]

Endi Forobiy fikricha, «avlodlararo munosabatlar xalqning baxt-saodatga, farovon hayotga erishish manbai»dir. Bu ikki fikrni qiyosiy tahlil etar ekanmiz, turli davrlarda va ijtimoiy muhitda yashagan bu mutafakkirlarning asosiy g‘oyalari Vatan himoyachilarni tarbiyasiga va ularda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga yo‘naltirilganligidagi umumiylikni kuzatish mumkin.

Suqrot o‘z davrida yoshlarni tashabbuskorlikka, vatanni sevishga, uning farovonligini ta’minlash uchun mehnat qilishga da’vat etgan va o‘z davri zodagonlari uning bu faoliyatiga «Yoshlarni buzish» degan ma’no yuklagan va shu bois uni o‘lim jazosiga hukm etgan. Aflotun o‘zining «Davlat» asarida davlat boshqaruvidagi tinchlik va barqarorlik harbiy qo‘shin zobitlarining milliy ruhi va vatanparvarligi bilan bog‘lik deb ta’kidlagan. Arastuning «Axloqi kabir» asarida xalqning milliy ruhini davlatning ijtimoiy mavqeining bosh omili deb



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



e'tirof etgan. I.Kant «Sof aqlning tanqidiga doir», G.Gegel esa «Ruh fenomenologiyasi» asarida milliy ruhning ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi bosh mezon ekanligini asoslagan.

Fales o'z qarashlarida, «eng qiyin narsa nima, degan savolga o'zni anglashdir», deb javob bergan. R.Dekart «men fikrlayapman, demak men borman» deb ta'kidlagan. R.Dekart «agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo'lsam, men o'zimni subekt sifatidagi mavjudligimni his qilaman», deb aytib o'tgan. P.Kovalevskiyning fikricha, «milliy o'zlikni anglash idrokning akti hisoblanib, unda shaxs o'zini millatning bir qismi deb hisoblaydi. Bu hayot boshlanishining asosini tushunish va maqsadlarining o'zaro uyg'unligi ta'siri bo'lib, unga butun xalq va uning alohida a'zolari kiradi», deb ta'riflab bergan. J.Baxronovning fikricha, «shaxsning milliy o'zligini anglash deganda, avvalo, muayyan millatga mansublikni, mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rnini bilish, milliy qadriyatlarga sadoqat, o'z millatining hozirgi kundagi ehtiyojlari va manfaatlarini anglashi, uning kelgusidagi rivojlanish yo'llarini bilishi hamda shu maqsadda vijdonan xizmat qilishi tushuniladi» va biz bu fikrlarni asosli deb hisoblaymiz. [5]

Yuqorida aytilgan buyuk mutafakkirlarni fikrlaridan kelib chiqqan holda biz yosh harbiy xizmatchilarni milliy va jangovar ruhni shakllantirishimizda ko'proq pedagogik shakl va usullardan unumli foydalanib ularning ongiga vatan muqaddas, uning yeri azizlikni va vatanni himoya qilish nafaqat burch balki savob ishlikni ularning ongiga singdirish lozimdir.

Hozirda biz yosh harbiy xizmatchilarni vatanparvar ruhda tarbiyalashimiz ortidan ularda «milliy iftixor» va «milliy g'urur»ning shakllantiramiz, buning ortida ularda milliy va jangovar ruh shakllanishiga zamin yaratgan bo'lamiz.

Endi milliy iftixor nima?

Milliy iftixor – bu harbiy xizmatchining ong va faoliyatida, o'zi mansub bo'lgan millatning madaniyati, tarixi, dini, tili, qadriyatlari qanchalik o'rnashib olganligini ifodalaydi. Milliy iftixor milliy g'urning yuqori bosqichi, cho'qqisidir. Xuddi shuning uchun ham milliy iftixor millatni yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini his qilishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, iftixor ruhiy-ma'naviy fazilatdir. Aynan shu fazilat tufayli kishilar o'zlarining tarixiy birliklarini – urug'-aymoqchilik, qon-qardoshlik, yaqinliklarini ifodalaydi.

Endi milliy g'urur nima?

Milliy g'urur – harbiy xizmatchi, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg'u o'zini-o'zi anglash shakllaridan biri bo'lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hisini ifodalaydi. U shaxs va ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan tarzda yo'naltiradi, tartibga soladi.

Yuqorida ko'rsatilgan pedagogik omillarni to'g'ri va oqilona foydalanib harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhni shakllantirishi bu komandirlarning bilim va ko'nikmalariga bog'liqdir. [6]

Qisqacha xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda milliy va jangovar ruhni shakllantirishda harbiy pedagogikaning roli beqiyosdir. U xizmatchilarni ma'naviy jihatdan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



yetuk, ruhan barqaror va jangovar vazifalarni sidqidildan bajara oladigan shaxs sifatida tarbiyalashni ta'minlaydi. Samarali harbiy pedagogik faoliyat — kuchli armiya va mustahkam milliy xavfsizlikning muhim kafolatidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993, 165-bet.
3. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. "Development of Professional Competencies of Pre-service Military Education Students Based on Information and Communication Technologies." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 10, no. 3, 11 Mar. 2022, pp. 266-269.
4. Khanimkulov Anvar Rahimkulovich. "DEVELOPMENT OF MILITARY PATRIOTIC TRAINING IN STUDENTS OF UPPER EDUCATION ESTABLISHMENTS." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.
5. Usmonov Adxam Abdulhamidovich. "The role of social pedagogy in the development of feelings of love for the motherland and patriotism in students and schoolchildren." Innovation: The journal of Social Sciences and Researches 1.6 (2023): 171-174.
6. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION ON THE BASIS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 11-13.

